




O'ZBEKISTON – MO'G'ULISTON: SAMARALI MULOQOTLARDA AMALIY HAMKORLIKNING BARCHA YO'NALISHLARI ATROFLICHA KO'RIB CHIQILDI

Ko'ksaroy qarorgohida 24-iyun kuni mamlakatimizga davlat tashrifini amalga oshirayotgan Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.



Yurtimizda ko'plab xalqaro musiqiy tanlovlar o'tkaziladi. Bunday tadbirlarda Mo'g'uliston badiiy jamoalari faol ishtirok etuvchilar sirasiga kiradi. Ularning ohanglari quloqqa begona tuyulmaydi, so'zlarini tushunmasak-da, yurakka yaqin olamiz.

Siyosiy, savdo-iqtisodiy aloqalarning mustahkamligi, avvalo, mana shunday madaniy yaqinlikdan boshlanadi. Ikki mamlakatdagi do'stlik jamiyatlarining faol hamkorligi, ishbilarmonlik va xalqaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan loyihalar izchil rivojlanayotgani quvonarli.

Mazkur davlat tashrifi ikki tomonlama aloqalarimiz rivojiga o'ziga xos sur'at bag'ishlashi shubhasiz.

Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tordii.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif qildi. Harbiy orkestr ikki mamlakat davlat madhiyalarini ijro etdi.

Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

Suhbat avvalida Mo'g'uliston Prezidenti davlatimiz rahbariga O'zbekistonga davlat tashrifi bilan kelish taklifi va ko'rsatila-yotgan samimiy qabul uchun chin dildan minnatdorlik bildirdi.

Mamlakatimiz rahbari oliy martabali mehmon va rasmiy delegatsiyaning barcha a'zolarini dildan qutlab, Mo'g'uliston Prezidentining ilk davlat tashrifi O'zbekiston — Mo'g'uliston ko'p qirrali munosabatlarini rivojlantirishda yangi sahifa ochishini alohida ta'kidladi.

Muzokaralar davomida mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Hukumatlar, vazirlik va idoralar darajasidagi aloqalar va almashinuvlar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortib bormoqda. Bugungi sammitga tayyorgarlik doirasida o'tkazilgan siyosiy maslahatlashuvlar samarali bo'ldi.

Siyosiy muloqot va parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, xavfsizlik sohasida aloqalarni faollashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Mo'g'uliston O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini to'liq qo'llab-quvvatlagan birinchi davlatlardan bo'lgani va tegishli bayonnomani imzolagan qayd etildi.

Muzokaralar davomida savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Yaqin yillarda o'zaro savdo hajmini, eng avvalo, talab yuqori bo'lgan mahsulotlar nomenklaturasi va hajmini kengaytirish hisobiga 5-10 barobarga oshirish uchun salohiyat mavjudligi ta'kidlandi.

Shu maqsadda hukumatlarga tovar ayirboshlash hajmini oshirish masalalari bo'yicha qo'shma ishchi guruh tuzish, Ulan-Bator va Toshkentda rasmiy savdo uylarini ochish, Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimni imzolashga tayyorlash hamda bozorlarga kirish sharoitlarini o'zaro yengillashtirish bo'yicha takliflar kiritish topshirildi.

Bundan tashqari, ikki davlat poytaxtlarida o'zaro sanoat ko'rgazmalari o'tkazish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Davlatimiz rahbari o'rta muddatli Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. Hamkorlikning bir qator yo'nalishlari aniqlab olindi.

Bu, avvalo, geologik qidiruv, xomashyo resurslarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohasida hamkorlik qilish, shu jumladan, bu sohada kadrlar tayyorlashni tashkil etish.

Mo'g'ulistondan go'sht va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni import qilish, shuningdek, O'zbekistondan tovuq go'shti, meva-sabzavot va boshqa qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

“Halol” standartlariga muvofiq go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha klaster tashkil etish va mintaqadagi mamlakatlarga eksport qilish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Bu yo'nalishlarda, shu jumladan, chorvachilik sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini rivojlantirish lozimligi ta'kidlandi.

Tomonlar xususiy sektor loyihalarini amalga oshirishga va biznes tashabbuslarini ilgari surishga ko'maklashishga kelishib oldilar.

Shuningdek, eng samarali va qisqa, shu jumladan, Qirg'iziston va Xitoy orqali o'tadigan transport yo'laklarini birgalikda tahlil qilish taklif qilindi.

Iqtisodiy kun tartibidagi barcha masalarni samarali ilgari surish uchun Bosh vazir o'rinbosarlari darajasidagi Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Madaniy-gumanitar aloqalar va almashinuvlarni mustahkamlashga ham alohida e'tibor qaratildi.

Turli yillarda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan mo'g'ulistonliklar do'stlik va hamkorlikning haqiqiy ko'prigi bo'layotgani ta'kidlandi.

Eng nufuzli universitetlar o'rtasida akademik almashinuvlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, grantlar asosida iqtidorli mo'g'ulistonlik talabalarni O'zbekistonda o'qitishni qayta tiklash bo'yicha kelishuvga erishildi.

Bugun Toshkentda mashhur “Morin Xuur” mo'g'ul orkestri ishtirokida san'at ustalarining qo'shma konserti bo'lib o'tadi.

Ikki mamlakat o'rtasida mavjud viza-siz tartibni inobatga olgan holda, qo'shma dasturlar va mahsulotlar asosida turizm almashinuvlarini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, sport va yoshlar sohalari-da hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Muzokaralar yakunida erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi”ni tayyorlash topshirildi.

Davlatimiz rahbari Prezident Uxnaagiyn Xurelsuxning samarali muloqotni davom ettirish uchun Mo'g'ulistonga javob tashrifi bilan kelish taklifini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning samarali muzokaralari yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Yetakchilar Davlatlararo munosabatlarda hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonotni imzoladilar.

Davlat tashrifi davomida jami 14 ta hujjat imzolandi, jumladan:

— Savdo, iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik to'g'risidagi 2024-2026-yillarga mo'ljallangan hukumatlararo dastur;

— Turizm sohasidagi hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Havo aloqasi to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Xalqaro avtomobil aloqasi to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2024-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;

— Xavfsizlik kengashlari kotibiyatlari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bayonot;

— Qishloq xo'jaligi vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Veterinariya va chorvachilik sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Fanlar akademiyalari o'rtasidagi ilmiy hamkorlik to'g'risida bitim;

— Milliy axborot agentliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bayonot;

— Savdo-sanoat palatalari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bayonot;

— Qo'shma Ishbilarmonlar kengashini tashkil etish to'g'risida bayonot;

— Toshkent va Ulan-Bator shaharlari ma'muriyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo'yicha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Yetakchilar ochiq va ishchan muhitda bo'lib o'tgan muloqotning samarali natijalaridan mamnun ekanliklarini, amaliy hamkorlikning barcha asosiy yo'nalishlari atroflicha ko'rib chiqilganini ta'kidladilar.

Davlatimiz rahbari Mo'g'uliston Prezidentining ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi birinchi tashrifi O'zbekiston — Mo'g'uliston do'stligini mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga bo'lgan o'zaro intilishning tasdig'i bo'lganini qayd etdi.

Mo'g'uliston biz uchun Osiyo mintaqasidagi an'anaviy va ishonchli hamkordir. O'zbekiston — Mo'g'uliston munosabatlari do'stlik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan bo'lib, konyunkturaga bog'liq emas, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Davlat rahbarlarining Samarqand va Dubayda bo'lib o'tgan uchrashuvlaridan

so'ng barcha darajalardagi aloqalar faollashdi. Tizimli siyosiy muloqot o'rnatildi.

Bundan tashqari, tovar ayirboshlash hajmi izchil o'sib bormoqda hamda yetakchi kompaniya va korxonalar o'rtasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi muzokaralar chog'ida ishlar holati atroflicha tahlil qilindi, ustuvor yo'nalishlar belgilandi va keng ko'lamli hamkorlikning yangi kun tartibi kelishib olindi.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqalar doirasida yaqin muloqotlarni va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga kelishib oldilar.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yaqin yillarda, birinchi navbatda, talab yuqori bo'lgan mahsulotlar nomenklaturasi va hajmini kengaytirish orqali tovar ayirboshlash hajmini oshirish vazifasi qo'yildi. Ikki mamlakat poytaxtlarida savdo uylarini ochish va joriy yilda sanoat ko'rgazmalarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Mamlakatlarimiz bir-birini samarali to'ldirishi mumkin bo'lgan tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasining aniq yo'nalishlari ham belgilandi.

Mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlash, Qoraqalpog'iston, Namangan viloyati va boshqa hududlarda chorvachilik majmualarini, go'shtni qayta ishlash klasterini tashkil qilish, yengil sanoatda jun va terini chuqur qayta ishlash, shuningdek, farmatsevtika, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab sohalaridagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish shular jumlasidan.

Sanoat kooperatsiyasini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'zaro investitsiyalarni himoya qilish va soliqqa tortish prinsiplari bo'yicha asosiy kelishuvlar tayyorlanadi va qabul qilinadi.

Barcha iqtisodiy masalalarni samarali hal qilish va loyihalarni tezlashtirish uchun yaqin fursatda Toshkentda Bosh vazirlar o'rtasidagi birinchi tashrifi Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va Ishbilarmonlar kengashining ta'sis sessiyasi bo'lib o'tadi.

Madaniyat, san'at, ta'lim, turizm, yoshlar va sport sohalarida faol almashinuvlarni yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

Bu borada alohida hamkorlik dasturi tayyorlanib, kelgusi yilda Toshkent va Ulan-Batorda o'zaro Madaniyat kunlari o'tkaziladi.

Davomi 2-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

24-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Dog'istonda sodir etilgan terrorchilik harakatlari tufayli halok bo'lganlarning oila a'zolariga ta'ziya va chuqur hamdardlik bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti bu g'ayriinsoniy zo'ravonlikni qat'iyyan qoraladi hamda xavfsizlik sohasidagi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda tegishli tuzilmalar o'rtasidagi faol hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini bildirdi.

Shuningdek, 26-28-may kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O'zbekistonga tarixiy tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ham muhokama qilindi.

Shu jumladan, ko'p tomonlama tashkilotlar doirasidagi tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqildi.

O'ZA

Munosabat

EKOFAOL MAMLAKATNING EZGU TASHABBUSI yoxud iqlim o'zgarishining huquqiy jihatlarini xususida

Shu yil 13-14-iyun kunlari xalqaro hamjamiyat e'tiborini O'zbekistonga qaratgan IV Samarqand forumi bu gal “Ekologik tahdidlar: o'zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash” mavzusiga bag'ishlandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan ushbu forum har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladi va unda davrning eng muhim muammolariga yechim izlanadi.



Qiziq jihati, forum mavzusi o'zagi — ekologik tahdidlar va inson huquqlari. Bir qarashda bu ikkisini o'zaro bog'liqlik kamdek, hatto ba'zilar nuqtayi nazarida umuman yo'qdek. Aslida-chi? Ekologik tahdidlarning inson huquqlariga bog'liqligi — ta'siri qay darajada?

Inson hayoti, butun orzu-umidlari tabiat bilan uzviy bog'liq. Oy yoki Marsdagi ilmiy o'rganishlarni kuzata turib, hatto ilg'or texnologiyalar ham insonga tabiiy yashash sharoitini yaratib berolmasligini ko'rib turibmiz. Tabiatda muvozanat yo'qolsa, hayotimiz izdan chiqishini ajdodlarimiz yaxshi bilgan. Shu bois, xalqimiz zakosidan guvohlik beradigan xalq og'zaki ijodida, avloddan avlodga o'tib kelayotgan ta'lim-tarbiyamizda inson va tabiat mavzusi o'z aksini topgan.

Davomi 3-betda

O'ZBEKISTON – MO'G'ULISTON: SAMARALI MULOQOTLARDA AMALIY HAMKORLIKNING BARCHA YO'NALISHLARI ATROFLICHA KO'RIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari O'zbekistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida mo'g'ulistonlik talabalarni o'qitishni qayta yo'lga qo'yishni taklif qilganini ma'lum qildi.

Shuningdek, mamlakatlar yakkakurash sportining an'anaviy turlarini ommalashtirish, amaldagi vizasiz tartib sharoitida sayyohlar oqimini oshirish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladilar.

Kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida ikki davlat hukumatlariga kompleks "yo'l xaritasi"ni tayyorlash va uning o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish topshirildi.

— Mo'g'uliston Prezidentining O'zbekistonga birinchi davlat tashrifi haqli ravishda tarixiy bo'ldi va ko'p qirrali hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Birgalikdagi katta ishlarimizning birinchi amaliy natijalarini tez fursatda ko'ramiz, deb ishonaman, — dedi O'zbekiston Prezidenti so'zining yakunida.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux ikki mamlakat ishbiarmon doiralari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdilar.

Tadbirda Mo'g'ulistonning MCS Investment, Mongol Basalt, Tavan Bogd Group, Asia Pharma, Khanbogd Cashmere, Erdenezoo Trans, ICT Group, ORDGEO, LBH Technology, NCD Group, Mega Wood, Modern Nomads kabi yetakchi kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdi.

O'zbekiston tomonidan Basalt Uzbekistan, BMB Holding, New Way Industries, Panaev



Farms, Ezel Central Asia, Azia Metall Prof, "Jizzax Jun", Procab va boshqa xususiy kompaniyalar qatnashdi.

Ta'kidlash lozimki, ishbiarmonlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan bunday formatdagi uchrashuv Mo'g'uliston bilan ilk bor o'tkazildi.

O'zbekiston Prezidenti mo'g'ulistonlik yetakchi ishbiarmonlarni va ularning o'zbekistonlik sheriklarini samimiy qutlar ekan, Mo'g'uliston Prezidentining O'zbekistonga ilk davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik tarixida muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor alohida ta'kidladi.

— Bu sizning O'zbekiston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va mustahkamlashga qaratilgan qat'iy intilishingizni va alohida e'tiboringizni yana

bir bor tasdiqlaydi, — dedi mamlakatimiz rahbari.

Bo'lib o'tgan mazmunli va konstruktiv muzokaralar davomida ikki tomonlama hamkorlikning barcha jihatlari atroflicha ko'rib chiqilgani, mavjud xazinalar tahlil qilingani va yangi o'sish nuqtalari aniqlangani qayd etildi.

— Biz mavjud salohiyat va imkoniyatlardan deyarli foydalanmayotganimizni ta'kidladik. Shu munosabat bilan yaqin yillarda o'zaro savdoni, eng avvalo, xaridor-gir mahsulotlar nomenklaturasi va hajmini kengaytirish orqali karrasiga oshirish vazifasini qo'ydik, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Bular — Mo'g'ulistonga oziq-ovqat, o'g'itlar, dori-darmonlar, maishiy texnika, plastmassa va rezina, qurilish materiallari, tayyor to'qimachilik va poyabzal

mahsulotlarini eksport qilish, shuningdek, yurtimizga go'sht va go'sht mahsulotlari, teri, jun va boshqa tayyor mahsulotlarni import qilish.

Mamlakatimiz rahbari mo'g'ul kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi.

Ikki davlat iqtisodiyotining bir-birini samarali to'ldirishga qodir sohalarida o'rta muddatli kooperatsiya dasturini qabul qilish bo'yicha kelishuvga erishilgani qayd etildi.

Bu, birinchi navbatda, geologik qidiruv, boy xomashyo resurslarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohalarida hamkorlik o'rnatishni o'z ichiga oladi.

Mazkur strategik sohada birinchi yirik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq takliflar tayyorlanadi.

Tomonlar xususiy biznes tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

Yetakchilar qo'shma Ishbiarmonlar kengashining tashkil etilishini olqishladilar. Yangi tashabbuslarni ishlab chiqish uchun yaqinda uning birinchi yig'ilishini o'tkazish rejalashtirilgan.

Tashrif davomida havo va xalqaro avtomobil aloqasi bo'yicha bitimlar imzolandi, bu ikki davlat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish va ishbiarmonlik almashinuvarlari faollashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Transport vazirlariga yuk tashish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash topshirildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, qonun ustuvorligi va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlarni qo'llab-

quvvatlash va JSTga qo'shilish jarayonini faollashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mo'g'ulistonlik ishbiarmonlarga yurtimizda ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga tayyor ekanini aytdi.

O'z navbatida, Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux erishilgan kelishuvlar hamda O'zbekistonda investorlar va tadbirkorlar uchun yaratilgan sharoitlarni yuqori baholab, biznes vakillarini faol hamkorlikka va yangi loyihalar bo'yicha aniq kelishuvlarga erishishga chaqirdi.

Fikr almashish chog'ida Mo'g'uliston tadbirkorlari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy ahamiyatini va mamlakatda yaratilayotgan qulay investitsiyaviy va biznes muhitini yuqori baholadilar.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq takliflar berildi.

Oliy darajadagi O'zbekiston — Mo'g'uliston muzokaralari yakunlangach, Ko'ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo'lib o'tdi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Uxnaagiyn Xurelsux xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik, ikki tomonlama munosabatlarda tarixida yangi sahifa ochishga bo'lgan o'zaro intilish ramzi sifatida Faxriy mehmonlar xiyobonida daraxt ekdilar.

So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux birgalikda Toshkent shahridagi Texnoparkka tashrif buyurdilar.

Ushbu zamonaviy innovatsion majmua davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida barpo etilgan.

Bugungi kunda bu yerda 365 million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar evaziga 16 ta ishlab chiqarish maydoni joylashgan.

Mo'g'uliston Prezidentiga Texnopark korxonalarida ishlab chiqarilayotgan keng turdagi yuqori texnologik mahsulotlar, shu jumladan, maishiy texnika, elektron hisoblagichlar, liftlar, suv nasoslari, sanoat konditsionerlari, sovitish uskunalari va boshqalar namoyish etildi.

Ta'kidlash joizki, yetakchi xorijiy brendlar ostida va ular nazoratida ishlab chiqarilayotgan bu tovarlar ichki va tashqi bozorlarda katta talabga ega.

Prezidentlar ikki mamlakat yetakchi korxonalari o'rtasida kooperatsiyani kengaytirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'zaro tajriba almashish muhimligini ta'kidladilar.

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Prezident Uxnaagiyn Xurelsux Mo'g'ulistonning Toshkent shahridagi ilk elchixonasining rasmiy ochilish marosimida ham ishtirok etdi.

Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning mamlakatimizga davlat tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari

Ekspertlar fikri

OLIY DARAJADAGI SAMMIT IKKI TOMONLAMA ALOQALARDA YANGI SAHIFA OCHDI

XORIJIY EKSPERTLAR O'ZBEKISTON VA MO'G'ULISTON PREZIDENTLARINING TOSHKENTDA BO'LIB O'TGAN MUZOKARALARI HAQIDA

24-iyun kuni Toshkentda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning ikki tomonlama samarali muzokaralari bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari ko'p qirrali hamkorlikning yangi dasturini tayyorlashga kelishib, muhim hujjatlar to'plamini imzoladilar.

Xorijiy ekspertlar O'zbekiston — Mo'g'uliston oliy darajadagi muzokaralari

natijalarini uzoq muddatli istiqbolda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan hamkorlikning aniq maqsadlarini tarixiy, deya baholamoqda.

O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi, nazarimda, ularning tashqi siyosatga yondashuvlari o'xshashligi va manfaatlar mushtarakligi tufayli ulkan salohiyatga ega. Har ikki davlat Yevropa va Osiyo bilan muvozanatli munosabatlarga intilib, milliy manfaatlariga yo'naltirilgan pragmatik siyosat olib bormoqda.

Sidxart SAKSENA,
Kembrij universitetining Markaziy Osiyo forumi direktori (Buyuk Britaniya):

— Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O'zbekistonga tashrifi Buyuk Britaniyadagi men kabi boshqa ekspertlarda ham katta qiziqish uyg'otdi. Diplomatik munosabatlarni mustahkamlash, turli sohalaridagi hamkorlikning yangi yo'llarini topish kontekstida ushbu tashrif alohida e'tiborga loyiq deb hisoblayman.

O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi, nazarimda, ularning tashqi siyosatga yondashuvlari o'xshashligi va manfaatlar mushtarakligi tufayli ulkan salohiyatga ega. Har ikki davlat Yevropa va Osiyo bilan muvozanatli munosabatlarga intilib, milliy manfaatlariga yo'naltirilgan pragmatik siyosat olib bormoqda.

Bu holat Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etish uchun Mo'g'uliston rahbarining Samarqandga tashrifi chog'ida mustahkamlangan yaqin do'stlik



rishtalari ikki mamlakat o'rtasidagi kelajakdagi o'zaro manfaatli hamkorlik uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

O'ylaymanki, kelajakda savdo-iqtisodiy aloqalar rasmiy Toshkent va Ulan-Bator o'rtasidagi hamkorlikda muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan har ikki tomon uchun ham strategik jihatdan ahamiyatli bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini kengaytirishga xizmat qiluvchi yangi transport-logistika imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Je Sung XUN,
Janubiy Koreyaning Xankuk xorijiy tillar universiteti professori:

— To'liq ishonch bilan aytishim mumkinki, Mo'g'uliston Prezidentining O'zbekistonga ilk davlat tashrifi ikki tomonning ishonchini to'liq oqladi.

Bu ikki tomonlama munosabatlarda sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, davlatlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirishga intilayotganidan dalolat beradi.

Siyosiy nuqtayi nazardan, shubhasiz, sammit va Toshkentda Mo'g'uliston elchixonasining rasmiy ochilishi muhim natijalardan biri bo'ldi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, tovar ayirboshlash hajmi va nomenklaturasini izchil oshirish bo'yicha qat'iy kelishuvlar bilan bir qatorda o'zaro savdo uylarini ochish, Ishbiarmonlar



Mo'g'uliston bilan aloqalari ham sezilarli o'sishga erishdi. Rasmiy Toshkent Ulan-Bator timsolida yangi ishonchli hamkor topishini chin dildan tilayman.

Gulnora SALIMOVA,
O'zbekiston — Shveysariya Savdo-sanoat palatasi boshqaruvi raisi:

— O'zbek-mo'g'ul munosabatlari ko'p asrlarga borib taqaladi va bugungi kunga qadar bu ikki xalqning qadimgi sivilizatsiyasiga xos bo'lgan etnolingvistik xususiyatlari, madaniy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar juda o'xshash.

Ming yillar davomida turkiy va mo'g'ul qabilalari yonma-yon yashab, yagona etnik-madaniy muhit yaratib, bir-birini boyitib, mustahkamlab kelgan.

O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni rivojlantirishning hozirgi davrida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va turli sohalarida o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish ikki davlat tashqi siyosatining muhim bosqichidir.

Qayd etish kerakki, Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O'zbekistonga davlat tashrifi ikki davlat o'rtasida 1992-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon 32 yil ichida ilk bor amalga oshirilmogda. Bu, shubhasiz,

Mo'g'uliston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga muhim turtki beradi, shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikni yangi iqtisodiy va madaniy mazmun bilan boyitadi.

O'zbekiston va Mo'g'uliston savdo-iqtisodiy, geologiya, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, sanoat va transport-logistika sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega.

Ma'lum bo'lishicha, tashrif chog'ida tomonlar ikki mamlakat hukumatlari va idoralari o'rtasida mazkur tarmoqlarni rivojlantirish va joriy loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan 10 dan ortiq hujjat imzoladi. Shuningdek, tashrif doirasida Toshkentda Mo'g'uliston elchixonasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Mamlakatlarda tovar ayirboshlash hajmini oshirish, xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvning raqobatchilik mexanizmlarini ishga tushirish uchun barcha sharoit mavjud. Bunga tashrif davomida imzolangan Savdo, iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik to'g'risidagi 2024-2026-yillarga mo'ljallangan hukumatlararo dastur hamda

kengashini tashkil etish nazarda tutilmogda. Imtiyozli savdo shartnomasini tuzish to'g'risidagi kelishuvni, shuningdek, bozorlarga o'zaro kirishni soddalashtirishni mutlaq yutuq deb hisoblash mumkin. Bu O'zbekistonning yana bir bor Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun tanlagan yo'ldan ortga qaytmasligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bilan Mo'g'uliston o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yangi yo'nalishlarda rivojlantirish, kun tartibini yanada boyitish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni qayd etish joiz. Ishonchim komilki, bundan nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqqa manfaat ko'radi.

Keyingi yillarda Janubiy Koreyaning Mo'g'uliston bilan aloqalari ham sezilarli o'sishga erishdi. Rasmiy Toshkent Ulan-Bator timsolida yangi ishonchli hamkor topishini chin dildan tilayman.



Toshkent va Ulan-Bator shaharlari savdo uylarining ochilishi yordam beradi.

O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi hamkorlikning so'nggi 30 yilida erishilgan yutuqlarni tahlil qilib, kelgusi yillardagi sheriklik istiqbollari va yo'nalishlarini baholagan holda, davlat rahbarlarining do'stona ruhda o'tgan uchrashuvlari, haqiqatan, tarixiy ahamiyatga ega va O'zbekiston — Mo'g'uliston munosabatlari rivojida yangi sahifa o'chadi.



Stanislav PRITCHIN,
Rossiya Fanlar akademiyasi E.M.Primakov nomidagi Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti katta ilmiy xodimi:

— Mo'g'uliston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning har jihatdan qayta boshlanishidir. Chunki ushbu tashrifning asosiy natijalaridan biri Toshkentda Mo'g'uliston elchixonasining ochilishi bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Demak, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimli rivojlanish bosqichiga o'tishi mumkin.

Bundan tashqari, tashrif davomida o'zaro hamkorlikning turli jihatlariga oid 14 ta hujjat imzolandi. Xolisona aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlari va O'zbekiston, umuman, Mo'g'uliston bilan o'xshash geosiyosiy jihatlar va xalqaro maydonda o'zining munosib o'rini egallashi uchun zarur shart-sharoitlarga ega. Bunday sharoitda davlatlar o'zaro munosabatlarning taraqqiyot bosqichiga o'tishi, jadal siyosiy muloqotni qayta boshlashi, albatta, mantiqiy va tabiiydir.

Shu bois, biz kelajakda O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar iqtisodiyotdan tortib, ekologiya, xavfsizlik va boshqa sohalarida ham taraqqiy etishini kutishimiz mumkin.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Munosabat

EKOFAOL MAMLAKATNING
EZGU TASHABBUSI
yoxud iqlim o‘zgarishining huquqiy
jihatlarini xususida

Masalan, “Alpomish” dostonida tabiat bilan bog‘liq holatlar juda ko‘p. Esingizda bo‘lsa, Ko‘galcha degan tuya Alpomish bilan bir vaqtda tug‘iladi. Ammo onasi o‘lib, bo‘taloq yetim qoladi. Shunda Kuntug‘mish (Alpomishning onasi) unga o‘z sudidan berib, katta qiladi. Bu — insonning doim tabiatni asrash kerakligiga ishora!

Bu mehrga tuyaning javobi ham juda go‘zal tasvirlangan. Qo‘ng‘iro‘t elining boshiga sinovli kunlar tushganda Ko‘galcha kasallanib yotib qoladi. U ayrilgini, el boshiga tushgan imtihonni ko‘tarolmaydi. Alpomish — elning najotkori qaytgach, Ko‘galcha uzoqdan uni tanib, istiqboliga yuguradi. Tuyaboqar bo‘lib qolgan Boybo‘ri kelayotgan otlq o‘g‘li bo‘lishi mumkinligini his etadi, ammo tanimaydi. Bu yerda nozik ishora bor: qaysi zaminda ezgulikning qo‘li baland kelishi, avvalo, tabiatda o‘z aksini ko‘rsatadi. Ko‘galcha — ana shu tabiat timsoli. Ha, adolat, tenglik va umuman, insoniy fazilatlar qaror topgan zaminda tabiiy muvozanatni saqlab qolishga intilish kuchli bo‘ladi. Shu ma’noda, Orol dengizining qurigan tubida bo‘y cho‘zayotgan yashillikni Alpomishning istiqboliga qarab yo‘l olgan Ko‘galchaga mengzash mumkin.

Darvoqe, Orol dengizi!

Jahon banki hisobotida qayd etilishicha, Orol dengizi qurishi oqibati O‘zbekistonga xavf solib turgan eng jiddiy ekologik xatardir. Hozir iqlim o‘zgarishining mamlakatdagi birgina mehnat samaradorligi, chorvachilik, irrigatsiya sohasiga ta’sirini yumshatish uchun 60 milliard dollar talab etilishi taxmin qilinmoqda.

Bugun Orolning qurigan tubida cheksiz saho paydo bo‘lgan. Dunyodagi “eng yosh saho” bo‘lgan bu hudud nomi — Orolqum. Sahro sahidan yiliga 150 million tonnagacha qum va tuz aralashmasi ko‘tarilib, Markaziy Osiyo davlatlari va undan naridagi hududlar havosi, tuprog‘ini ifloslantiradi. Orolqum nafaqat salomatlik va atrof-muhitga ziyon keltiradi, balki iqtisodiy zarari ham katta. Xususan, Jahon banki hisobotiga ko‘ra, Orolqum sabab birgina Qoraqalpog‘iston iqtisodiyoti yiliga 44 million dollar ziyon ko‘radi.

Mamlakatimiz sharoitida qishloq xo‘jaligi aholining asosiy tirikchilik manbai bo‘lgani uchun iqlim o‘zgarishi ta’sirini, eng avvalo, dehqon va chorvadorlar his etyapti. Dunyo bo‘ylab ham ayni ikki soha iqlim o‘zgarishining birlamchi qurboniga aylanib bormoqda. BMT ma’lumotlarida 2015-2019-yillarda dunyo bo‘ylab 400 million gektar yoki Markaziy Osiyo mintaqasi hududidan bir oz ko‘p yer maydoni yaroqsiz ahvoga kelib qolgan, saholashuv keskin kuchaygani qayd etilgan. Ma’lumotda mintaqamizning o‘zida ham vaziyat o‘ta xavotirli ekanini ta’kidlab, jumladan, “Markaziy Osiyoning 20 foizdan ortiq hududi yoki qariyb to‘rtta Qirg‘izistonga teng roppa-

Super oy
hodisasi ro‘y bersa, doim
yerda to‘fon bo‘lishi kuzatilgan.
Oy yerga juda yaqin kelsa, okean va
dengizlardagi suv sathi ko‘tariladi.
O‘z o‘rnida yerdagi iqlim o‘zgarishi
bevosita oyga ta’sir qiladi. Yerning
tortishish kuchi susayadi va oy
zaminimizdan uzoqlasha boradi.
Bu ham biz uchun
falokatli.

rosa 80 million gektar yer yaroqsiz holga kelib qolgan. Mintaqa umumiy aholisining taxminan 30 foizi buning salbiy ta’siriga uchrashmoqda”, deyiladi.

Albatta, bularning asosiy sababi — Orol fojiasi. Shu bois, keyingi yillarda Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, hududni imkon qadar yashillashtirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Gap Orol fojiasi asoratini yumshatish, qum-tuz uchishining oldini olish haqida borar ekan, bu borada taklif etilgan eng maqbul yechim dengiz tubini qurg‘ochchilik hamda tuzga chidamli daraxt, buta, o‘simliklar ekish orqali yashillashtirishdir. E’tiborli jihati, bunday ishlar yurtimizda 5-6 yil oldin boshlangan. Oxirgi yillarda Orol tubining 2 million gektardan ko‘proq qismiga saksovl va cho‘lga chidamli boshqa o‘simliklar ekildi. Natijada tuz va qum bo‘roni kamaydi. Ekilgan nihollar ko‘karib, bugun atrofini yashillikka burkayapti.

O‘tgan yili Orol hududiga ilk bor kelgan UNCCD ijrochi kotibi Ibrohim Tiav ham bu eng to‘g‘ri va samarali yo‘l ekanini ta’kidlagan: “Orolga turibman, ammo biror dengizni ko‘rmayapman. O‘rniga qum dengizini ko‘r-yapman. Orol bugun tarixga aylandi. Bunday



O‘zbekiston, balki butun sayyoramizda tabiiy muvozanat saqlanishi, bu orqali insoniyatning o‘zi istaganiday farovon turmush kechirishiga erishish.

Bugunga kelib, global ekologik muammolar tobora kuchayib borayotir. Buning sabablari turlicha. Biroq bir haqiqat kundek ravshan: ekologik muammolar, asosan, inson aralashuvi tufayli sodir bo‘lyapti. Masalan, texnik taraqqiyot sababli havoga chiqarilayotgan zararli gaz, sanoat, shaharlashtirish uchun kesilayotgan daraxtlar, turfa ko‘rinishdagi urushlar... Bularning barchasi oxir-oqibat global isish, iqlim o‘zgarishiga olib kelmoqda. Oqibatda dunyo ahli iqlim o‘zgarishining turli shakli — cho‘llanish, saholanish, suv taqchilligi, yer degradatsiyasi, qurg‘ochchilik kabi tabiiy ofatlar bilan yuzlashmoqda.

Global isish boshqa hududlar singari mamlakatimizda ham hozirgidan ko‘proq zararli oqibatini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, jahon meteorologiya tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, hozirgacha global yillik o‘rtacha havo harorati 1880-yildagidan 1 daraja ortgan. Yurtimiz sharoitida xuddi shu davr uchun o‘rtacha yillik havo harorati 1,6 daraja ko‘tarilgan. Isish jadalligi global miqyosda kuzatilayotgan o‘rtacha sur‘atdan yuqori. Sababi, O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi ta’siriga ko‘proq moyil mamlakatlar qatoriga kiradi.

Tabiatan issiqni yoqtiradigan, hatto saratonda ham qaynoq cho‘y ichadigan xalqimiz, shunga nima bo‘libdi, deyishga shoshilmang. Buz uchbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarning bir qismidir. Umuman olganda, taraqqiyotga ekologik muammolarni hal etish orqali erishish mumkinligini ayni vaqtda anglab yetdik. Bugun imkon qadar iqlim o‘zgarishining oldini olish va salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha zarur choralar ko‘ryapmiz. Maqsadimiz nafaqat

qismi yo‘qoldi. Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi.

Ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu global xavflar keng mamlakatimizda xatari nuqtaga yetib kelmoqda”, degand.

Hozir iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurd. Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo‘roni, ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va boshqa ko‘plab muammolar mintaqadagi millionlab odamlarning turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, 2030-yilga borib, iqlim o‘zgarishidan kamida 8 million yurtdoshimiz eng qattiq jabr ko‘rishi mumkinligiga doir taxminlar yanada xavotirli.

Nafaqat Yer sayyorasi, balki butun galaktikamiz xuddi inson tanasi kabi yaxlit jismga o‘xshaydi. Shu ma’noda, mintaqamiz uchun xatari bo‘lgan ekologik muammo asta-sekin butun sayyoramizga ta’sir qiladi. Yerdagi o‘zgarishlar galaktikadagi muvozanat o‘zgarishiga olib keladi. Buni dunyo olimlari ilmiy asoslab bergan.

Masalan, super oy hodisasi ro‘y bersa, doim yerda to‘fon bo‘lishi kuzatilgan. Oy yerga juda yaqin kelsa, okean va dengizlardagi suv sathi ko‘tariladi. O‘z o‘rnida yerdagi iqlim o‘zgarishi bevosita oyga ta’sir qiladi. Yerning tortishish kuchi susayadi va oy zaminimizdan uzoqlasha boradi. Bu ham biz uchun falokatli.

Bularning barchasini tartibga keltirish, aslday asrash insoniyat gardaniga yuklangan. Shu bois, har qanday ko‘rinishdagi ekologik masalaga qaysidir hudud muammosi sifatida qarash xato. U doim global darajadagi masala. Shu ma’noda, mamlakatimizdagi insonparvarlik siyosati zahirida aynan ekologiyani asrashga ustuvor masala sifatida qaralayotgani alohida ahamiyatga ega.

Avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ekologik masalalar, shu jumladan, fuqarolarning ekologik huquqlari kafolatlanganini ta’kidlash o‘rinli. Bosh qonunimizning 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lishi huquqi mustahkamlandi. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashi hamda atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish qat’iy belgilab qo‘yildi.

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi keng ko‘lamli “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ko‘chati ekilmoqda. Bu, albatta, shahar va qishloqlarimizni yashillikka burkash, iqlim mo‘tadilligini saqlash, pirovardida aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Qolaversa, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-

quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish uchun yil yakuniga qadar yashil bog‘lar sonini 444 taga yetkazish, 112 ta yirik sanoat korxonasi hududi va unga tutash joylarda 2,1 million tup ko‘chatdan iborat “yashil belbog‘” barpo etish vazifalari belgilangan.

Uchinchidan, suv resurslari taqchilligining oldini olish borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda. Jumladan, birgina 2023-yilda 410 ming gektardan ortiq maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Qariyb 223 ming gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydoni lazer uskunasi yordamida tekislangan. Shuningdek, joriy yil davlat byudjetidan qo‘shimcha ajratilgan 500 milliard so‘m hisobidan 1,5 ming kilometr yirik kanallar betonlashtirilgan.

To‘rtinchidan, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishda ekologik toza transport vositalarini ko‘paytirish, yonilg‘i sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ham salmoqli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, poytaxtimizda elektrobular harakati yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, Toshkent shahrida yuk tashuvchi avtotransport vositalari harakatini tig‘iz vaqt oraliq‘ida taqilash, “Avtomobilsiz kuz” kabi muhim choralar ham atmosfera havosining musaffoligini ta’minlashda muhim omil.

Beshinchidan, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yo‘nalishida muqobil energetika tamoyillarini



amaliyotga joriy etish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, bugun umumiy quvvati 24 ming megavattidan ortiq elektr stansiyalari hamda jami quvvati 3 ming 165 megavatt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish loyihalari bo‘yicha ishlanmoqda.

Keyingi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo 1,6 gigavattli 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi hamda Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 183 megavattli 6 ta gidroelektr stansiyasi ishga tushirildi.

2030-yilga borib, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 25 gigavattga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Bu, o‘z navbatida, tabiiy resurslarni tejash bilan bir qatorda atmosferaga issiqxona gazi chiqishining oldini olish imkonini beradi.

Eng muhimi, yaqin yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushining umumiy energiya muvozanatida 40 foizga yetkazilishi aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyaga ehtiyojini ta’minlashga xizmat qiladi. Umuman, energiya tizimi mamlakatning har jihatdan qon tomiridir. Avvalo, barqaror energiyasiz iqtisodiy o‘rish mumkin emas. Unga erishish esa tabiatga zarar yetkazish orqali bo‘lmaydi kerak. Ana shu oltin oraliqni saqlab, jadal rivojlanish yo‘lini tanlayotgan O‘zbekiston xalqaro maydonda ekofaol mamlakatlar yetakchisi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Fikrimizga BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo-da iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasini ishlab chiqish va ilgari surish tashabbusi dalil bo‘la oladi.

Uzoq yillardan buyon dunyoning turli yirik mamlakatlari inson huquqlari haqida bong uradi. Qizig‘i, aynan o‘sha mamlakatlar qurolli to‘qnashuvlarga sabab bo‘lyapti. Shu orqali urush ketayotgan hududlarda odamlar, ayniqsa, bolalar, ayollar va keksalar ko‘p aziyat chekaypti. Boz ustiga, o‘q-dorlar zahri ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazadi. Ikki jihatdan ham inson huquqlari poymol bo‘ladi.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi oqibatida inson huquqlariga yetkaziladigan zararni kamaytirish uchun mamlakatlar birgalikda samarali choralar ko‘rishi kerak, degan ezgu tashabbusni ilgari suryapti. Shu bois, IV Samarqand forumida kelgusi avlodlar taqdiri uchun barchamiz ulkan mas’uliyatni o‘z zimnamizga oladigan vaqt keldi, degan xitob yangradi. Mamlakatimiz minbaridan turib aytilgan ushbu chaqiriq xalqaro maydonda aks sado berishga shubha yo‘q. Chunki ekologiya, iqlim o‘zgarishlari barchamizga birdek daxldor masala.

Zero, global miqyosda qashshoqlik bilan bog‘liq muammolar ko‘paymoqda. Insonning sog‘liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga xalqaro huquqlarini ta’minlash qiyinlashib boryapti. Sababi, ekologik inqiroz tufayli barqaror rivojlanish murakkablashyapti.

Keling, endi ekologiya va inson huquqlarining bog‘liqlik jihati haqida aytak. Agar ekologik muvozanat buzilsa, yer yuzi cho‘llashadi. Suv taqchilligi bor joyda inson





Moziyga nazar

O‘RXUN-ENASOYNING QADIM QUVVATI HAMON HAYRATLI



Mardon HASANOV,
Urganch davlat universiteti
o‘qituvchisi

Bir sayohat o‘nlab kitob o‘qishga teng keladi, deganlaridek, Ulan-Batorda safarimizda mo‘g‘ullar to‘g‘risida ko‘p bilimga ega bo‘ldik. Tarix kitoblaridagi ma‘lumotlarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Albatta, Mo‘g‘uliston bo‘ladi-yu, mashhur sayyoh Marko Pologa murojaat qilmaymizmi?! U bunday yozadi: “Xalqi chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Qoraqurumdan shimol tarafdagi xalqlarda bug‘u ko‘p, bug‘ularda yuradilar”.

Bu yerga kelishdan asosiy maqsadlardan biri O‘rxun-Enasoy bitiklari edi. Bu bitiklar umumiy nom bilan shunday atalib, juda katta hududda joylashgan: O‘zbekistonning shimoli-sharqiy hududidan tortib, Qozog‘iston, Rossiya va Mo‘g‘ulistongacha. Ana shu bitiklar ichida eng mashhuri To‘nyuqug bitiktoshi. Bu bitiktosh Ulan-Batordan 66 kilometr janubi-sharqda — qadimdan turkiylar makoni bo‘lgan O‘tukan vodiysida joylashgan. Bitiktosh ikkinchi Turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkarda To‘nyuqug tilidan 712-716-yillarda toshga o‘yib yozilgan.

Ikkinchi Turk xoqonligi barpo etilishiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ donishmand To‘nyuqug turkiy yozma adabiyotining eng birinchi namoyandasi bo‘lib, bitiklari vatansevarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Unda, jumladan, mana bunday satrlar bor: *“Turk xalqi xonini qo‘yib, yana Tabg‘achga qo‘shildi. Tangri bunday degan shekilli: “Xon berdim. Xoninni*

Mo‘g‘uliston deganda ko‘pchilik tasavvurida, asosan, Chingizxon gavdalanadi. O‘tgan yili bu mamlakatga ilmiy safarimizgacha biz ham deyarli shunday o‘ylardik. Aslida, bizni Mo‘g‘uliston bilan bog‘lab turadigan rishtalar ko‘p. Ikki xalq o‘rtasidagi tarixni jug‘rofiy nuqtayi nazardan tutashtiradigan jihatlar bor. Qadimgi xunlar, yuechjilar, kushonlar, Buyuk ipak yo‘li, O‘rxun-Enasoy bitiklari shular jumlasidan. Bundan tashqari, Mo‘g‘uliston tuprog‘iga ziroatchilik va bog‘dorchilik ilmini ham ajdodlarimiz olib borgan birdek e‘tirof etiladi. Bular kelib chiqishi Turkistondan bo‘lgan va ko‘p asrlardan buyon Mo‘g‘ulistonda yashab kelayotgan chantu va sartul xalqlaridir.



qo‘yib, taslim bo‘lding”. Taslim bo‘lgani uchun tangri “o‘l”, degan shekilli. Turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi”.

Keyingi mashhur bitiklar Kultegin va Bilga xoqon bitiktoshlari bo‘lib, O‘rxun daryosi bo‘yida bir-biriga yaqin yerda joylashgan. Bular tengdosh, chamasi 730-yillarda toshga o‘yib yozilgan. Kultegin bitigi ushbu ajoyib jumlar bilan boshlanadi: *“Tangridek tangridan bo‘lmish turk Bilga xoqon bu dunyoga keldim. So‘zimni tugal eshitgil keyinimdagi ini, jiyanim, o‘g‘il(lar) im, ittifoq, urug‘im, xalqim”.* Asl holatida quyidagicha o‘qiladi: *“Tengri teg, tengrida bolmish turk-bilge kag‘an bu odke olurtum, sabimin tuketi eshidgil: ulayu ini yigunum, og‘lanim, biriki og‘ushum bodunum”.* Qarang, o‘zbek tiliga qanchalik yaqin, o‘xshash!

Kultegin va Bilga xoqon bitiktoshlari boshqa barcha turk-runiy yodnomalari kabi o‘z ilidizini ulug‘ va muqaddas sanaydigan insonni chuqur o‘yga toldiradi. Zamonaviy dunyodagi og‘rig‘u hasratlar ming yillar avval ham bo‘lgan, u turk xoqonlari, donishmand vazirlari va sarkardalarini qiynagan, o‘ylantirgan. *“Oltin, kumush, ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan tabg‘ach xalqi so‘zi shirin, ipagi nafis ekan. Shirin so‘zi, ipagi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda*

yaqinlashtirar ekan”, deya hasrat qiladi Kultegin hamda xalqni bunga aldanmaslikka chaqiradi. Turkiylardagi birovlarining shirin so‘ziga darrov ishonib ketish odatidan yozg‘iradi.

Turkiy bitiklar manziliga safarimiz yakunida guruhimiz ko‘zlangan asosiy maqsadlaridan birini amalga oshirishga kirishdi. O‘rxun daryosi bo‘yida Vatanimiz bayrog‘ini o‘rnatdik. *“So‘ylasin Afrosiyob-u, so‘ylasin O‘rxun xati, ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, o‘zbekim!”* Shundan so‘ng O‘rxun suvidan hovuchlab ichdik. Suvu tiniq, toza va totli ekan. Avvallari nomini faqat kitoblarda o‘qiganimiz bu afsonaviy imqonning o‘zini ko‘rish, shildirab oqayotgan muzdek suvidan to‘yib ichish kishiga ham huzur, ham halovat beradi. O‘rxun vodiysi bizga bir umr esda qoladigan xotiralar berdi.

Bu tuproqqa qadam qo‘ygan kishi qir-adirlar, kengliklarga oshiq bo‘ladi-qoladi. Qandaydir jozibasi bor. Ushbu vodiylarning kengligi insonlar fe‘liga ham ko‘chgan. Mo‘g‘ullar fe‘li keng xalq. Bir hafta u yerda yurib, asabiylashgan va hatto baland tovushda gapirgan biror kishini uchratmadik. Farzandi xarxasha, to‘polon qilsa ham urishish u yoqda tursin, rang-atvori ham o‘zgarmas ekan ularning. Universitetda bo‘lgan paytimiz u yerda o‘qiyotgan Altinbek otli qozoq

yigit mo‘g‘ullarga ta‘rif berar ekan, “Mo‘g‘ullar juda keng bo‘ladi, bu ularning genida bor”, dedi.

Mo‘g‘ullar o‘zligini saqlab qolgan va kelajakda ham saqlab qolish uchun sa‘y-harakat qilayotgan xalq. Garchi sho‘rolar davridan buyon u yerda kirill alifbosiga asoslangan mo‘g‘ul yozuvi amalda bo‘lsa ham oxirgi paytlarda an‘anaviy mo‘g‘ul yozuviga qaytish harakati kuchli. Bu ko‘cha-ko‘yda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Siyosiy tashkilotlar binosi (masalan, parlament) nomi kirillcha bilan parallel ravishda tepadan quyiga qarab yo‘naladigan mo‘g‘ul yozuvida bitilgan. Bu yozuvni maktablarda ham kichik sinflardan boshlab o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan.

Mo‘g‘ulistonda yo‘l bo‘yidagi yaylovlarda o‘tlab yurgan yilqi, chorvani ko‘p uchratasiz. Tepasida birorta cho‘pon yo‘q. Chorva emin-erkin, istalgan yerda o‘tlab yuradi. Bularning egasi yo‘qmi deb o‘ylaysiz. Ushbu o‘lka shunisi bilan ham mashhur-da: qoramol soni aholi sonidan bir necha o‘n barobar ko‘p.

Mo‘g‘ul xalqining yana bir xislati bor, shuning uchun ularni hurmat qilmasdan bo‘lmaydi. Ular nihoyatda sodda odamlar. Yolg‘onni bilmaydi. O‘z-o‘zidan ayyorligi ham yo‘q. Shuningdek, ular ko‘makka muhtoj odamga yordam berish uchun shoshiladi. Ayniqsa, mehmonligingizni bilsa, to‘la-to‘kis, oxirigacha, beminnat yordam ko‘rsatadi.

Safarimizning oxirgi kuni O‘zbekistonning qator universitetlari va Mo‘g‘uliston milliy universiteti o‘rtasida ilmiy anjuman o‘tkazildi. Unda kamina Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” lug‘ati to‘g‘risida ma‘ruza qildim. Tengsiz tilshunos Zamaxshariy tomonidan tuzilgan ushbu lug‘at avvalboshda faqat arab va fors tillarini qamrab olgan. Ko‘p o‘tmay, bu lug‘atga turkiy (eski o‘zbek) til ham qo‘shildi. 1492-yilga kelib esa lug‘at Buxoroda mo‘g‘ul tiliga ham tarjima qilingach, oxir-oqibat “Muqaddimat ul-adab” to‘rt tili lug‘atga aylanadi: arab — fors — o‘zbek — mo‘g‘ul.

Zamaxshariy lug‘atining mo‘g‘ulcha tarjimasidagi til o‘rta mo‘g‘ul tili bo‘lib, Movarounnahrda XIV-XV asrlarda muomalada bo‘lgan. E‘tiborli jihati shundaki, lug‘atdagi so‘zlar bir-biriga yaqinligi o‘rta asrlarda o‘zbek va mo‘g‘ul tillari o‘rtasida bir oz bo‘lsa-da, o‘xshashlik bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ming yillar davomida turkiy va mo‘g‘ul xalqlari bir-biri bilan ahil-inoq yashab, yagona etnik madaniy muhitni vujudga keltirgan. Ularning dunyoqarashi, diniy qarashlari, turmush tarzi juda yaqin. Asrlar o‘tgan bo‘lsa ham madaniy o‘xshashlik va yaqinlik saqlanib qolgan.

Iftixor



TILLARDAN DILLARGA KO‘CHGAN SHIOR

QARSHI SHAHRIDA QAYTA TASHKIL ETILGAN HARBIY AVIATSIYA INSTITUTI ILK BITIRUVCHILARINI PARVOZGA SHAYLADI

Erta tong. Keng maydonda bir xil harbiy libosda mardonavor turgan bo‘lg‘usi zobitlar saf tortgan. Barchasining yuz-ko‘zida shijoat aks etgan. Tanlagan kasbidan ko‘ksi q‘ururga to‘lib turganini anglash qiyin emas. Ularga yaqin joyda bir guruh odam — qo‘lida gul bilan kimdir farzandini, yana kimdir nabirasini tabriklashga shay bo‘lib turibdi.

Bir paytlar o‘zi ham harbiy bo‘lib, nafaqaga chiqqan otaxon kampiriga tanbeh bergan bo‘ladi:

— Nabirangga qara, xuddi o‘zim. Uni ko‘rib, yoshligim yodimga tushib ketdi. Sen bo‘lsang, doim undan xavotirlanasan. Bugungi armiya kechagidek emas. Hammasi o‘zgargan. Bizning davrimizdagidek qiyinchiliklar yo‘q, hozir bularga qarab, odamning havasi keladi.

Sal nariroqda onasiga ergashib kelgan to‘rt-besh yoshlardagi bola harbiy kiyimda o‘ng qo‘lini chakkasiga tirab, o‘zicha harbiycha salom berib turibdi. Suratchilar bolaning bu holatini muhrashga shoshilmoqda. Safda turganlar orasidagi novcha yigit bolakayning harakatiga tabassum bilan boqmoqda. Bir ozdan so‘ng tadbirning asosiy qismi boshlanadi...

O‘zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti tashkil etilganiga o‘ttiz yil to‘ldi. Ayni paytda Qarshi shahrida joylashgan oliy ta‘lim

eshitirildi. Shundan so‘ng ilk bitiruvchilarga diplom va ko‘krak nishonlari topshirildi. Leytenant unvoni bilan taqdirlangan harbiylar bakalavr diplomini qabul qilib olar ekan, har biri faxr bilan “O‘zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman”, deya baralla aytardi. Bu so‘zlar shu ondayoq kul tilidan dillarga ko‘chib, yurt sarhadlarini ko‘z qorachig‘iday asrashga shay ekanini anglatadi.

O‘tgan o‘ttiz yilda muassasa O‘zbekiston mudofaasi aviatsiya sohasiga ko‘plab mutaxassislar tayyorlab berdi. Ularning aksariyati harbiy havo kuchlari qo‘shinlarida xizmat qilib, yuksak xizmatlari uchun davlatimizning 100 dan ortiq orden va medali bilan taqdirlangan.

— Harbiy uchuvchilik kasbini tanlaganimdan juda mamnunman, — deydi Aslbek Mahmudjonov. — O‘tgan davrda institutda soha bo‘yicha chuqur tayyorgarlikdan o‘tdik.



muassasasi dastlab 1994-yili Jizzax shahrida Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti sifatida ochildi. Mazkur o‘quv muassasasi yillar davomida e‘tibordan chetda qolgandi. Deyarli 25 yil sobiq ittifoqdan qolgan yondashuvlar asosida mutaxassislar tayyorlab kelingan.

2019-yili OTM Qarshi shahrida qaytadan tashkil etildi. 2023-yili Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrif chog‘ida ushbu bilim yurtida bo‘lib, yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Aviatsiya sohasi mutaxassislarini tayyorlashdagi muammolar haqida ma‘lumotga ega bo‘lib, shart-sharoitlarni yanada yaxshilash bo‘yicha masadadilarga tegishli topshiriqlar berdi. Shundan so‘ng joriy yil yanvarda ushbu bilim yurtini harbiy aviatsiya institutiga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Institutda zamonaviy standartlar asosida kursantlar to‘rt yil ta‘lim olishi belgilandi. Shuningdek, magistratura hamda doktiorantura bosqichlarining ochilishi aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, sohada ilmiy izlanish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini berdi. Harbiy aviatsiya sohasida kam sonli klasteri yaratildi. Bundan tashqari, institutda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilib, aviatsiya sohasida ilmiy izlanish olib borishga katta imkoniyat hozirlandi. Jizzax viloyatidagi Paxtakor aerodromi institut aviatsiya o‘quv mashq markazi etib qaytadan tashkil etilgani kursantlarning yil davomida parvoz amaliyoti hamda o‘quv-jangovar uchish apparatlarini mukammal o‘rganishiga xizmat qiladi.

Tantanalı tadbirda dastlab oliygoh kursantlariga leytenant unvonini berish hamda lavozimga tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining buyrug‘i o‘qib

O‘qituvchilarimiz ko‘magida uchuvchilik bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘ldik. Bir so‘z bilan aytganda, toblandik. Endi olgan bilim va ko‘nikmalarimizni amaliyotda qo‘llaymiz.

Ofitser unvonini olgan yoshlarning xatti-harakatini kuzatib turganlar orasida onalarning quvonchi cheksiz.

— Bir o‘g‘lim, to‘rt qizim bor. Rostini aytсам, o‘g‘lim harbiy uchuvchi bo‘laman, deganida ancha cho‘chidim. Bolaligidan uchuvchilikka qiziqardi, — deydi Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidan kelgan Nilufar Durdiyeva. — Avvaliga buni shunchaki havas deb o‘ylardim. Ammo ulg‘aygach, farzandim qarorida qat‘iy turib oldi. Nima qilishga hayron qoldim. Uning shashtini so‘ndirib bo‘lmasdi. Dadasi esa bundan mamnun oldi. O‘sha paytlari akamni armiyaga jo‘natganimiz yodimga tushib ketdi. Onam akamni harbiy xizmatga jo‘natgach, bir oylar xafa bo‘lib yurgandi. Eshik tiq etsa, ko‘chaga yugurib chiqar, o‘g‘lim keldimikan, deya ko‘ngli bezovta yurgandi. Shulami o‘ylab, rosa xavotir oldim. O‘g‘lim o‘qish istagida ariza berib, kirish imtihonlaridan o‘tgach, ko‘rgani keldim. Ishonasizmi, xayolimdagidan mutlaqo boshqacha sharoitni ko‘rib, quvondim. Yotoq joylari, mashg‘ulot xonalari kishining havasini keltiradi. Ovgatlanish uchun yaratilgan imkoniyatlarda muammo bo‘lishi mumkin emas. Barchasi ko‘ngildagidek edi. Shundan so‘ng xavotirim arib, chin yurakdan o‘g‘limning harbiy bo‘lishiga ko‘nganman. Mana, o‘qishni ham tugatib oldi. Shunday o‘g‘lim borligidan faxrlanaman.

Yosh uchuvchi ofitserlar zamonaviy imkoniyatlar mavjud OTMda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishdi. Endi ular mamlakatimiz havo qo‘shinlarida munosib xizmat qiladi. Ona Vatanimizning samo sarhadlarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylaydi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqaro hamkorlik

G‘ARB VA SHARQ ORASIDAGI KARVON
Uning yo‘lida qadimiy aloqalar poydevori mustahkamlangan

Keyingi yillarda o‘zbek va mo‘g‘ul olimlari o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanib borayotir. 2023-yilda olimlarimiz Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Batorda o‘tkazilgan birinchi o‘zbek-mo‘g‘ul tarixchi va filologlarining xalqaro konferensiyasida ishtirok etib qaytgandi.

Joriy yil iyunida esa mo‘g‘ul olimlari mamlakatimizda bo‘lib, Urganch shahrida “O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston tarixi va tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. Tariximizdagi umumiy va

o‘ziga xos jihatlar, o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalar va ularning yechimi xususida fikrlashildi. Avgust-sentabr oylarida o‘zbek, mo‘g‘ul hamda turk olimlari ishtirokida yana bir xalqaro anjuman o‘tkazishga kelishib olindi.

Anvar BO‘RONOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori:

— 30 yil davomida hech bir olimning oyog‘i O‘rxunga yetmagan. Biroq shu davrda turkiyalik turkolog va oltoyshunoslar Mo‘g‘uliston milliy universiteti bilan hamkorlikda Turkologik tadqiqotlar institutini tashkil qilib, muhim izlanishlar o‘tkazib kelmog‘da. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilishi har ikki mamlakat filologlari uchun ham yangi ufqlar ochadi. Eng asosiysi, o‘zbek olimlarining qardosh davlatlarning turkologiya sohasidagi strategik tadqiqotlariga qo‘shilishiga, hamkorlik kengayishiga imkoniyat yaratadi. Bu esa tillarni tarixiy-qiyosiy o‘rganish yo‘nalishining sifat jihatidan yaxshilanishiga xizmat qiladi.



Anhbayar DANU,
Mo‘g‘ulistonning Istanbuldagi bosh konsuli:

— O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston Markaziy hamda Shimoli-sharqiy Osiyoning tez rivojlanayotgan davlatlaridir. Bundan bir necha yil oldin yurtigizning tarixiy shaharlarida bo‘ldim. O‘zbek xalqi buyuk madaniyat yaratgan. Ayniqsa, tarixiy qadamlarga munosabatga havas qilsa arziydi. Bu yerda har qadamda buyuk turkiy izlarini uchratish mumkin.

Yangi O‘zbekistonning do‘stona va ochiq tashqi siyosati, avvalo, qo‘shni va qardosh davlatlar bilan uzilgan yoki uzozlashgan munosabatlarni ishonchli tarzda tiklash yo‘lidan borayotgani ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarga rivojiga ham ijobiy ta‘sir qiladi. 2022-yili Mo‘g‘uliston Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston fuqarolari uchun 30 kun muddatga vizasiz tartib joriy etilganini e‘lon qildi. O‘tgan yili 8-martda Toshkent shahrida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari ishtirokida o‘tkazilgan uchrashuvda Mo‘g‘ulistonning O‘zbekistonda elchixona ochishni rejalashtirgani ma‘lum qilindi.

President Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 1-dekabrda BAAGA amaliy tashrif doirasida Mo‘g‘uliston yetakchisi Xnaagiyn Xurelsux bilan uchrashgan edi. Joriy yil 7-mayda Ulan-Bator shahrida O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarni



ing navbatdagi davrasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston hamkorligining bugungi holati va yanada rivojlanish istiqbollari muhokama qilindi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishni jadallashtrish, shuningdek, Mo‘g‘uliston Prezidentining joriy yil iyun oyida O‘zbekistonga davlat tashrifiga alohida e‘tibor qaratish ta‘kidlandi.

Ushbu aloqalar faqatgina ikki mamlakatning iqtisodiy rivojiga, siyosiy hamjihatligiga, balki madaniy, ilmiy aloqalarining ham yuksalishiga xizmat qiladi. Bugun ikki davlat aloqalarining rivojlanishi yangi bosqichga chiqmoqda.

Xususan, Mo‘g‘uliston Prezidentining mamlakatigizga kelishi ikki davlat aloqalari tarixida yangi davrni boshlab berishiga ishonaman. Bunga yetarlicha tarixiy aloqalarimiz poydevori mavjud. Azaldan ajdoddaringiz Buyuk ipak yo‘lida G‘arb va Sharq orasida karvonboshilik qilgan. O‘zbekistonni Mo‘g‘ulistonda qadimdan “savdogarlar yurti”, deya atashgani ham buni tasdiqlaydi. “O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston tarixi va tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani esa ikki mamlakat olimlarining bundan keyingi hamkorligi, izlanish va tadqiqotlarida yana bir mustahkam ko‘priki, deya ayta olamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Gulichehra DURDIYEVA yozib oldi.

Bekzod ABDIRIMOV,
Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi rahbari:

— Mo‘g‘uliston zaminida qadimdan turkiy va mo‘g‘ul xalqlari yashab kelgan. U yerdan topilgan turkiy bitiktoshlarda buyuk xoqon bobolarimizning birlikka chaqiruvchi da‘vatlari haligacha saqlanmoqda. O‘tgan yili biz — o‘zbekistonlik olimlar Mo‘g‘ulistonning bir qancha hududiga ilmiy ekspeditsiya uyushtirib, bitiktoshlardagi turkiy yozuvlar bilan tanishgan edik. Mo‘g‘uliston milliy universitetida o‘tkazilgan birinchi o‘zbek-mo‘g‘ul konferensiyasida ishtirok etdik. Urganch shahrida bo‘lib o‘tgan ikkinchi konferensiyaga esa Mo‘g‘ulistondan nufuzli 8 tarixchi va filolog keldi. Anjuman qizg‘in savol-javoblarga bo‘y, nihoyatda qiziqarli va mazmunli o‘tdi. Shuningdek, Urganch davlat universiteti va Mo‘g‘uliston milliy universiteti o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

O‘tkir ABDULLAYEV,
Urganch davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori:

— Ikki davlat hamkorligida o‘tkazilgan konferensiya olimlar uchun bir-birining ilmiy tadqiqotlari natijalaridan xabardor bo‘lish, bilimlar ulashish yo‘lida qulay muloqot maydoni vazifasini bajardi. Anjumanda mo‘g‘ul olimlari qadimgi mamlakat poytaxti bo‘lgan Qoraqurum shahri qurilishi tarixi xorazmlik ustalar bilan bog‘liqligi haqidagi ilmiy asoslangan ma‘lumotlar bilan tanishtirdi.



Shuningdek, bizga Qoraqurumning 1340-yillardagi hokimi Banokatyi ismli ajdodimiz bo‘lgani, Oltin O‘rda davlatida xorazmliklarning o‘mi, Chingizxon avlodlarining islom dinini qabul qilishi, Xitoyda Yuan sulolasi davrida Turkiston vakillari bilan munosabatlarga haqidagi qimmatli ilmiy ma‘lumotlar taqdim qilindi. Konferensiyada ikki davlat olimlariga zarur bo‘lgan ana shunday tarixiy haqiqatlar bilan tanishdik. Izlanishlarimiz hali davom etadi.

Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik



“DARHAQIQAT, O‘ZBEKISTONDA TOJIK TILIDA CHOP ETILADIGAN “OVOZI TOJIK”, “DURDONAI SHARQ” VA TOJIKISTONDA O‘ZBEK TILIDA NASHR QILINADIGAN “XALQ OVOZI”, “SHARQNOMA” GAZETALARINING IJODIY HAMKORLIGI BOIS, O‘ZBEK VA TOJIK QALAMKASHLARINING IJODIY ISTE’DODLARI RO‘YOGBA CHIQQIMOQDA, ADABIY ALQALAR TOBORA RIVOJLANMOQDA.



Keldi kulib zamoni

O'ZBEK BILAN TOJIKNING




G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
raisi o'rinbosari, shoir

*To Jomiy bor ekan,
Biz ular qo'ygan tamaldan,
O'zbekim tojik bilan...*

(Abdulla Oripov)

Biz ikki yondosh elga,
Qarindosh, qondosh elga,
Jondosh, imondosh elga,
Farzand bo'lamiz, do'stim...
Beruniy, Ibn Sinoga,
Jomiydek pok siymoga,
Navoiydek dahoga,
Dilband bo'lamiz, do'stim.

(Erkin Vohidov)



elchilari, elchixonona vakildiri hamda vatandosh-larimiz jam bo'lgan ekan. Rost gap, elchixonona binosiga qadam qo'yishigiz bilan bahri dilingiz ochiladi. O'zingizni vatan sarhadlarida yurgandek his etasiz. Zamonaviy binoning ichki va tashqi qismlari o'zbek me'morlik yutuqlarini eslatib turadi. Eshik-romlar, mebel jihozlardagi yog'och o'yimaklorigi deysizmi, ularga berilgan ranglar deysizmi... hamma-hammasi ona yurtini yodga soladi. "Bir so'z bilan aytganda, — dedi mamlakatimizning Tojikistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Ergash Shoismatov elchixonona binosi bilan yaqindan tanishtirar ekan, — elchixonada mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan ishlarni samarali tashkil etish uchun barcha sharoitlari yaratilgan". Biz bino bilan tanishish jarayonida bunga amin bo'ldik.

O'zbekiston o'g'lidurman,
tojigim gufto pisar,
Rost g'iyam, har kadome
sevgilimdur jon qadar,
Ona deb aysam birovini,
ul biri menga padar,
Hamchu du chashmi siyoham
ikhli xalq ham mo'tabar,
Mehru yodsh dar vuyudam —
porlagan shamsu qamar.

Bu yerda ushbu qo'shiqlarga aylanib ketgan misralarni bitgan bo'lgan va tojik xalqining ardoqli farzandi, Tojikistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist O'lmas Jamol tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi hamda "Vatandoshlar" jamoat fondi va Yozuvchilarni uyushmasi hamkorligida nashr etilgan kitob taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbir haqqiyo ma'nodan

O'zbekiston o'g'lidurman,
Rost g'yam, har kadome
Ona deb aytсам bировin,
Hamchu du chashmi siyoham
Mehru yodash dar vujudam —

tog'im gufto pisar,
sevgilindur jon qadar,
ul biri menga padar,
ikki xalq ham mo'tabar;
porlagan shamsu qamar.

Bu yerda ushbu qo'shiqlarga aylanib ketgan
 rasmiy bitgan o'zbek va tojik xalqining
 qo'li farzandi, Tojikistonda xizmat ko'rsatgan
 namoqli O'lmas Jamol tavalludining 90
 yiliga bag'ishlangan xotira kechasi hamda
 tashdirlash" jamoat fondi va Yozuvchilarni
 qo'llab-quvvatlash jamoat tashkiloti tomonidan
 tashrifi hamkorligida nashr etilgan kitob
 dimoti bo'lib o'tdi. Tadbir haqiqiy ma'noda
 xalq va nava kechasiga aylandi. Nega deysizmi,
 bu so'z olganlardan biri she'r aytas, biri qo'shiq
 aytadi-da.

Daslab barchamiz "Zakovat" intellektual o'yini bahslarini zo'r qiziqish bilan tomoshda qildik. Ushbu bilim musobaqasida faol qatnashgan olti jamoa orasidan Tojikistonda o'zbek tilida yash etlayotgan "Xalq ovozi" gazetasining yosh xodimlari g'olib bo'ldi. G'olib jamoaning har bir a'zosisi noutbuklar tuhfa etildi.

Abulqosim Lohutiy, G'afur G'ulom, Oybek, Mirzo Tursunzoda, Rahim Jalil, Abdulla Qahhor, Jalol Ikromiy, Sotim Ulug'zoda, Hamid Olimjon, Abudusalom Dotiyo, Rahmat Faziev, Hamid

— Biz bu o'yinni O'zbekiston televideniyesi G'ulom, Mirsaid Mirshakar, Aminjon Shukhiy, orqali ko'rib, unda qatnashishni orzu qilib keldirdik, Javharizoda, Nazarmat, Erkin Vohidov, Abdulla — deydi g'olib jamoa sardori Zuhridin Umarov. — Oripov, O'lmas Jamol va boshqa adiblarning Mana, nafaqat qatnashish, balki g'alaba qozonish do'stligi ijodiy hamkorliklari bo'lgan. Bugungi kunda bu an'ana Sirojiddin Sayyid, Mirzo ham muvassaf bo'ldik.

Undan keyin Mamlakatxon Ulashevaning Kenjabek, Nizom Qosim timsolida davom etayotgani e'tirof etildi. "Adabiy do'stlik — abadiy do'stlik" shiori ostida O'zbekiston va Tojikiston yozuvchilar uyushmalari o'rtasidagi adabiy aloqalar yangi bosqichga ko'tarilgani bayon qilindi.

— Bu kitobning ilk taqdimotidir. U men uchun juda hayajonli kechdi, — deydi Munojit Yoʻlchiyeva. — Chunki keyingi yillarda yurtimizda yuksak eʼtibor qaratilayotgan maqom sanʼati doʻstluq qarodosh har ikki xalq uchun ham qadrdirdi. Kitob taqdimotiga tojikistonlik maqom ustalari, ijodkor ziyolilar kelgani esa men uchun ham, shogirdim Mamlakatxon uchun ham quvonarli boʻldi.

Ma'lumot uchun aytib qo'yish kerak, atqol
ijodkor O'lmas Jamolning xotira kechasi va
kitobi taqdimoti bir necha kun oldin shoir
tug'ilib o'sgan zamin — Urgutda ham bo'lib
o'tgan, tadbir davomida shoirning xonadonida
yodgorlik lavhi o'rnatilgan hamda O'lmas
Jamolning farzand-u nabiralarga va tadbir
ishtirokchilariga uning asarlaridan saralab nashr
etilgan "O'zim dunyo aro dunyo" kitobi tuhfa
etilgan edi.

Tadbir yakunida mezbonlaru vatandoshlarni
bir piyola choy ustida suhbat qurdi.
Suhbatdoshlarimizdan biri hayajon bilan “*Rahmat*”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2168.
44065 nuxxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

5

Xatlonidagi tadbirlarni yakunlab, baland tog' toshlar oralab So'g'd viloyati sari otandik. Xo'jandi shahriga kirib kelganimizda ancha kech bo'lgan edi. Mehmonxonam ham shundoqqina Sining bo'yida ekan. Sahar turib, ijodkor do'stlarimiz bilan ikki xalqa ham rizq bo'lgan oqoyatgan daryo bo'yida sayr etdik. Kamol Xo'jandinging xush keltirilgan qadamjoni ziyorat qilid. U fors-tojik mumto' adabiyotining ulug' allomalari Rudakiy, Daqiqi, Sanoiy, Xayyom, Sa'diy va Hofiz qatori jahon adabiyoti rivojiga benazir xizmat qilgan allomazotdir. Kamol Xo'jandi Samarqand madrasalarida tahsil olgan, Toshkentda ham bir muddat yashagan. So'z o'ylar og'ushida hazrat Xo'jandinging ushbu misralari ham xayolimdan o'tdi:

Vasl ayyomida o'zga zamonlarni
 ko'rur oshiq
 Ki do'stlar yuzida men u zamonni
 bu zamon ko'rdim
 Kamol, ul dam ki yoronlar ila
 o'zni yaqin ko'rsang
 Degil: bu davlatim topdim —
 shahi sohibqiron ko'rdim

Ziyoratda so'ng Xo'janddan Spitamen
tumaniga yo'l oldik. Adabiyat-ma'rifiy tadbirlarini
Shukur Burhonov nomidagi o'zbek drama teatrida
bo'lib o'tishi rejalashtirilgan. Ta' to'la. Hatto joyi
yetmay, tadbirni tek turgan holda ko'rayotganlar
ham anchagina. Tadbirda "Vatandoshlar" jamoa-
si rahbari Odiljon Sattorov, Spitamen tuman
hokimi o'rinbosari Dilrabo Rahimiy hamda
kamina so'zga chiqdik. Ta'lim o'zbek tilida olib
borilayotgan maktablarga kitoblar sovg'a qilingi
"Vatandoshlar" jamoati fondi eng zamonaviy ovi-
kuchaytirgich jihozlar to'plamini teatr jamoasi-
tantalari ravishda topshirdi. Tadbir davomida ha-
ikki xalqning do'stligi timsoli bo'lmish hazra-
tobolarimiz... Naivoi va Jomiy bilan bog'liq
sahna asari namoyishi bo'lib o'tdi.

4
 Darvoqe, biz Xatlon viloyatiga borishdan oldin
 ijodkor do'stlar hamrohligida Rudakiy tumanidagi
 Mavlono Ya'qub Charxiy va Mavlayiy hoji
 Hindistoniy hazratlari qabrlarini ziyorat qildik.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahra tatanali ravishda topshirdi. Tadbir davomida ha yashagan naqshbandiya ta'limotining yirik ikki xalqning do'stligi timsoli bo'lmish hazra vakillaridan biri Xoja Ahror Valiyning o'tozi bobolarimiz — Navoiy va Jomiy bilan bog'li bo'lmish mavlono Ya'dub Charxiv G'azna sahna asari namovishi bo'lib o'tdi.



(Afg'oniston) shahri yaqinidagi Qarsh chaxshlog'ida tug'ilgan. U o'z davridagi ilmlarni egallagach, ko'ngliga tasavvufga nisbatan xohish paydo bo'lib, Buxoroga keladi va Xoja Bahouddin Naqshband bilan uchrashib, shogird tushadi. Charxiy XV asrda temuriylar davridagi tasavvuf, xususan, naqshbandiyya ta'limotining yirik vakillaridan biri sifatida nom gozondadi.

Mavlaviy hoji Hindistoniylning asli ismi Muhammadjon mullo Rustam o'g'li bo'lib, 1892-yilda Qo'qon tuzofotiga qarashi Chorbog' qishlog'ida tug'ilgan. 97 yil umr ko'rgan bu allomani ilmi ahli "Domla Hindistoniy", "Mavlaviy Hindistoniy", "Hoi millatlarning nafaqat qalbi, balki g'iyofalari ham bir-biriga o'xshash ekanidan dalolat. ("Devon Foniy")da Navoiy hazrat bunday tuzil qilganlar Nigori turku tojikam kunad sad xona vayrona, Bk on mijgiori tojiknavu chashmoni turkona. Ilohim bu aqdim do'stlika ko'z temasin.

domullo", "Hazratı Mavlaviy" singari nomlar bilan e'zozlab tilga oladi. U Qur'on kitaraming ma'naviy tarjimai – "Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on" kitobini tasnif etgan. Ushbu kitob taniqli olim Sayyidun Sayfullahning si'yo-harakatlari bilan nashr etilib, o'zbek xalqining tarqatim etilgan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”
gazetalari tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorapak" MCHJ mas'ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:15 Topshirildi — 00:10